

“BOBURNOMA” ASARINING TARIXIY-ADABIY AHAMIYATI

Arziqulova Dilobar Narmuhammad qizi

Fan va texnologiyalar universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk sarkarda, davlat arbobi va adib Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur “Boburnoma” asarining tarixiy va adabiy ahamiyati tahlil qilinadi. Asarda XV–XVI asrlarda Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindiston hududlarida yuz bergan muhim siyosiy voqealar, ijtimoiy munosabatlar, tabiiy-geografik muhit hamda muallifning shaxsiy kechinmalari haqqoniy va xolis tarzda yoritilgani ilmiy asosda ochib beriladi. Shuningdek, Boburning sodda va ravon bayon uslubi, kuzatuvchanligi, tarixiy voqealarni aniq tasvirlash mahorati hamda “Boburnoma”ning o‘zbek nasri taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi. Maqolada asarning jahon tarixshunosligidagi mavqei va bugungi kundagi ilmiy-amaliy ahamiyati ham baholanadi.

Kalit so‘zlar: Boburnoma, Zahiriddin Muhammad Bobur, tarixiy manba, o‘zbek nasri, adabiy meros, Movarounnahr, Afg‘oniston, Hindiston, Boburiylar sulolasi.

Har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti va ma’naviy kamolotini yoritishda yozma manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, buyuk sarkarda, davlat arbobi va adib Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan “Boburnoma” asari o‘zbek adabiyoti hamda jahon tarixshunosligida noyob manba sifatida e’tirof etiladi. Mazkur asarda XV–XVI asrlarda Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindiston hududlarida kechgan muhim tarixiy-siyosiy jarayonlar, ijtimoiy munosabatlar hamda madaniy muhit muallifning bevosita kuzatuvlari asosida haqqoniy va izchil tarzda yoritilgan.

O‘zbek adabiyoti tarixida beqiyos o‘rin tutgan “Boburnoma” — nafaqat bir shohning xotiralari, balki butun bir davrning jonli tarixiy, madaniy manzarasi va insoniy kechinmalarini mujassam etgan nodir asardir. Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan XVI asrda yozilgan ushbu asar o‘z davrining siyosiy voqealari, urf-odatlarini, geografik tasvirlari hamda shaxsiy hayotiy kuzatuvlarini yuksak badiiylik bilan qamrab oladi [1].

O‘zbek adabiyotshunosligi va tarixshunosligida ham “Boburnoma”ni o‘rganish bo‘yicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan. XX asrda Fitrat, S. Azimjonova, M. Salye, P. Shamsiyev, S. Mirzayev kabi olimlarning tadqiqotlari Bobur merosini chuqur ilmiy asosda o‘rganishga xizmat qildi. Xususan, M. Salyening rus tiliga qilgan to‘liq tarjimai va unga yozilgan ilmiy izohlar asarning mazmunini keng ilmiy jamoatchilikka yetkazishda muhim

ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, o‘zbek olimlari tomonidan “Boburnoma”ning til xususiyatlari, tarixiy haqiqat va badiiy tasvir uyg‘unligi, muallif shaxsiyatining aks etishi masalalari atroflicha tahlil qilindi.

Hozirgi kunda ham “Boburnoma” asari zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida qayta tadqiq etilmoqda. Unda tarixiy manbashunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va qiyosiy tahlil metodlari orqali yangi ilmiy xulosalar ilgari surilmoqda. Bu esa “Boburnoma”ning nafaqat tarixiy yodgorlik, balki bugungi ilm-fan va ma’naviy taraqqiyot uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asar ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur asarning muhim xususiyati shundaki, muallif o‘z hayot yo‘lini oshkora, bezaksiz va rostgo‘y qalam bilan bayon etadi. Asarda Boburning shaxsiy quvonch va iztiroblari, siyosiy kurashlari, tabiatga bo‘lgan hayrati hamda insoniy kechinmalari yuksak samimiyat bilan ifodalangan. Aynan shu jihatlar “Boburnoma”ni nafaqat tarixiy manba, balki badiiy yuksak asar darajasiga ko‘taradi. Shu bilan birga, unda o‘sha davr shaharlarining tasviri, tog‘lar, daryolar, o‘simlik va hayvonot olami haqidagi aniq hamda boy ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ular bugungi kunda ham olimlar uchun qimmatli ilmiy manba hisoblanadi. Asarning har bir bobida hayotning turli jabhalari yorqin va jonli tasvirlar orqali namoyon bo‘ladi. Asardan ma’lum bo‘lishicha, Zahiriddin Muhammad Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o‘rganish hamda ommalashtirishda nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O‘zbekiston, balki butun dunyo olimlari va adiblarining samarali ilmiy-ijodiy faoliyati diqqatga sazovordir. Bu boradagi izchil sa’y-harakatlar tufayli “Boburnoma” asari jahonning turli mamlakatlarida ko‘plab tillarga tarjima qilinib, chop etildi. Ushbu nashrlarga salmoqli so‘zboshilar yozildi, mazmundor izohlar va ilovalar berildi, natijada asar keng kitobxonlar ommasining ma’naviy mulkiga aylandi.

Mazkur asar “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa uni “Vaqoye” va “Tarix” deb atagan. “Boburnoma”da 1494–1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallifning hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir [2].

Asar bayon etilgan voqealar jarayoniga ko‘ra uch qismga bo‘linadi: Boburning Movarounnahr (1494–1504), Afg‘oniston (1504–1524) va Hindiston (1524–1530)dagi hukmdorlik davrlari. Birinchi qismda Boburning otasi — temuriylarning Farg‘ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461–1494) haqida, Boburning Farg‘ona taxtiga o‘tirishi (1494-yil iyun), Temuriylar davlatida kuchaygan taxt uchun kurashlar natijasida o‘z ulusidan mahrum bo‘lishi, Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan janglari va nihoyat, Afg‘onistonga yo‘l olishi tafsilotlari bayon qilingan.

Ikkinchi qismda Boburning Qobulni zabt etib, u yerda mustaqil davlat tuzgani, Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni qayta egallagani, shayboniylardan yengilib, Kobulga qaytgani va Hindistonga yurishlarga tayyorgarlik ko‘ra boshlagani yoritiladi.

Uchinchi qismda esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyni mag‘lub etib, Shimoliy Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatiga asos solgani haqida ma‘lumotlar berilgan.

“Boburnoma”da Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag‘oniyon va Shimoliy Afg‘onistonning XV asr oxiri hamda XVI asr boshlaridagi siyosiy ahvoli batafsil yoritilgan. Asarda muallifning temuriylar — Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Boysung‘ur Mirzo, Sulton Husayn Boyqaro va boshqalarning xulq-atvori haqidagi xolis baholari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, asarda tarix, falsafa, fiqh, dinshunoslik, tilshunoslik, geografiya, tabiatshunoslik, dehqonchilik va bog‘dorchilikka oid ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan aniq ma‘lumotlar keltirilgan. Boburning lashkarboshi sifatida qatnashgan jang manzaralari ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan.

“Boburnoma”da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Muhammad Solih kabi ko‘plab ijodkorlar va san‘atkorlarga xolis baho berilgan. Xususan, Alisher Navoiy haqida: “Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she‘r aytibturlar — hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas”, — deya ta‘rif beriladi [3].

“Boburnoma” XVI asrdan boshlab hozirgi kungacha ingliz, fransuz, nemis, rus, fors, hind, urdu va boshqa tillarga bir necha bor tarjima qilinib, sharh va izohlar bilan nashr etilgan. Asarning jahonga mashhur bo‘lishida ingliz sharqshunoslarining xizmati katta. 1826-yilda J. Leyden va V. Erskin tomonidan ingliz tilidagi birinchi to‘liq nashri amalga oshirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘zbek adabiyoti va jahon tarixshunosligida beqiyos ilmiy va adabiy ahamiyatga ega bo‘lgan nodir manbadir. Asarda XV–XVI asrlarda Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindiston hududlarida kechgan tarixiy-siyosiy jarayonlar muallifning bevosita kuzatuvlari asosida haqqoniy va aniq tarzda yoritilgan. Boburning rostgo‘y va sodda bayon uslubi, voqealarga xolis yondashuvi hamda shaxsiy kechinmalarini oshkora ifodalashi asarning tarixiy manba sifatidagi ishonchliligini yanada oshiradi.

Shuningdek, “Boburnoma”da berilgan geografik, etnografik va madaniy ma‘lumotlar bugungi kunda ham tarix, adabiyotshunoslik, manbashunoslik va boshqa fanlar uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Asarning yuksak badiiy qiymati, til va uslub

jihatidan boyligi uni o‘zbek nasrining eng mukammal namunalari qatoriga olib chiqadi. Shu bois “Boburnoma” nafaqat tarixiy voqealarni aks ettiruvchi asar, balki milliy ma’naviyatimizning bebaho durdonasi sifatida ham alohida qadrlanadi.

Adabiyotlar

1. Abdurashid Abdug‘afurov. O‘zME. 1-jild. Toshkent, 2000.
2. Азимджанова С. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. Москва, 1977.
3. O‘zbek adabiyoti tarixi. 3 jild. Toshkent, 1978.
4. Jalilov S. Bobur haqida o‘ylar. Toshkent: Sharq, 2006.
5. Muhiddinov Z. Bobur Mirzo. Andijon: Andijon nashriyot-matbaa, 2005.